

# Muhim iqtisodiy va ijtimoiy loyihalar ko'rib chiqildi



Özbekiston Respublikasi Prezidentining  
MATBUOT XIZMATI

Prezident Shavkat Mirziyoyev Toshkent shahrida ko'p kvartirali uy-joy fondini boshqarishni takomillashtirish va issiqlik ta'minoti tizimini rivojlantirish, mahallalarni obodonlashtirish va ko'kalamzorlashtirishga oid, hamda geologiya sohasi va kimyo sanoatidagi loyihalar bilan tanishdi.

Kommunal xizmatlar millionlab aholi turmushiga daxldor masala. Ilgari ko'p qavatli uylarga xizmatni faqat mulkdorlar shirkati ko'rsatar, texnika va mutaxassislar yetishmasligi sababli uning sifati past edi. Bugungi kunda esa boshqa boshqarish shakllari ham joriy qilingan.

2020 yilda tajriba tariqasida Toshkent shahrining Yunusobod tumanidagi 110 ta ko'p qavatli uy qonunchilikda belgilangan tartibda boshqaruv kompaniyalariga berilgan edi. Bu tajriba 2021-yilda barcha viloyat markazlari, Chirchiq va Angren shaharlarida davom ettirilib, 15 ta boshqaruv kompaniyasi tomonidan xizmat ko'rsatish yo'lga qo'yilgan.

Masalan, Navoiy shahridagi 116 ta ko'p qavatli uygaga bitta boshqaruv kompaniyasi tomonidan xizmat ko'rsatilgan bo'lib, muddati o'tgan qarzdorlik 2 baravar qisqargan. Bu kompaniya 34 turdag'i maxsus texnika olib, aholi va tadbirdorlarga 20 dan ortiq yangi xizmatlarni yo'lga qo'ygan.

Davlatimiz rahbari bu tizimni kengaytirishni rag'batlantirish kerakligini, yil yakunigacha boshqaruv kompaniyalari tomonidan xizmat ko'rsatishni Toshkent shahrining barcha xizmat sifati past tumanlarida joriy etish zarurligini ta'kidladi. Xizmatlardan aholi rozi bo'lgan shirkatlar va uy-joyni bevosita boshqaruvchilar bundan mustasno ekaniga alohida e'tibor qaratildi.

- Bu ishlarni tizimli tashkil etishimiz lozim. Axir bu odamlarimizning kundalik muammolari, ularni hal etmasak, xalqimiz bizdan rozi bo'lmaydi, - dedi Prezident.

Buning uchun maxsus ishchi guruh joylarga chiqib, uy-joy mulkdorlari shirkatlari faoliyati, aholi fikrlarini o'rGANADI, shirkatlar va boshqaruv kompaniyalarining moliyaviy muammolarini hal etib boradi.

Faoliyati va moliyaviy ahvoli qoniqarsiz bo'lgan shirkatlar hududini ochiq tanlov asosida boshqaruv kompaniyalariga berish masalasini o'rganish topshirildi.

Umuman, uy-joy boshqaruv kompaniyalariga muayyan imtiyoz va yengilliklar berilishi qayd etildi. Jumladan, ular foyda va mulk solig'idan ozod etiladi, ijtimoiy ob'ektlarga autsorsing asosida xizmat ko'rsatish uchun to'g'ridan-to'g'ri shartnoma tuzishga ruxsat beriladi, maxsus texnika va uskunalar sotib olishga 90 milliard so'm kredit ajratiladi va foizlarining bir qismi qoplab beriladi, import qilinadigan uskuna va texnikalarga bojxona bojlari kelgusi 3 yilda "nol" stavkada qo'llaniladi, tugatilayotgan shirkatlarning muammoli kreditlari 3 yilga muzlatiladi.

Uy-joy kommunal xizmat ko'rsatish vazirligiga bunday ishlarni barcha hududlarda tashkil etish vazifasi qo'yildi.

Taqdimotda 2022-yilda issiqlik ta'minoti tizimida amalga oshiriladigan loyihalar to'g'risida ham ma'lumot berildi.

Xususan, joriy yilda 10 ta qozonxonani modernizatsiya qilish va 2 ta yangi qozonxona qurish, 120 kilometr issiqlik tarmoqlarini yangilash, natijada 24 ming 400 ta xonodon va 51 ta ijtimoiy soha ob'ektlarining issiqlik energiyasi ta'minotini yaxshilash rejalashtirilgan.

Davlatimiz rahbari har bir mahallaning iqtisodiy, ijtimoiy, ilmiy markazi bo'lishi kerakligini aytgan edi.

Taqdimotda shu borada Toshkent shahrida amalga oshiriladigan ishlar haqida axborot berildi. Qayd etilganidek, mahallalarda bolalar va sport maydonchalari quriladi, yo'laklar tartibga keltirilib, daraxtlar ekiladi. Buning uchun 579 ta mahallaning har biriga byudjetdan 1 milliard so'mdan ajratilgan.

Prezidentimiz bu mablag'dan samarali foydalanish, zarur bo'lsa, mahalliy byudjetdan qo'shimcha resurs yo'naltirish bo'yicha ko'rsatma berdi. Boshqaruv kompaniyalarini jalb qilib, 2 mingta ko'p qavatli uylarni joriy va kapital ta'mirlash kerakligi aytildi.

Ma'lumki, yurtimizda "Yashil makon" umummiliy loyihasi amalga oshirilmoqda. Xususan, bu yil poytaxtimizda 1 million tup manzarali va mevali daraxtlar ekish rejalashtirilgan. Taqdimotda shu boradagi ishlar haqida tumanlar va ko'chalar kesimida ma'lumot berildi.

Taqdimotda Milliy bog' hududida barpo etilishi rejalashtirilgan Davlat san'at muzeyi loyihasi, xususan, dunyoga mashhur "Atele Brukner" arxitektura byurosi tomonidan tayyorlangan ko'rgazmalar, ekspozitsiyalar va boshqa xonalarning joylashuvi rejasi ko'rib chiqildi.

Geologiya sohasida amalga oshiriladigan ishlar taqdimotida yuqori texnologik metallar qazib chiqarish rejalarini bayon qilindi. Jumladan, mis, noyob metallar, magniy, litiy va grafit zaxiralalarini o'zlashtirish, uglevorod xomashyosi bo'yicha qidiruv ishlarni kengaytirish masalalari ko'rib chiqildi.

Davlatimiz rahbariga mamlakatimiz kimyo sanoatida amalga oshiriladigan loyihalar to'g'risida ham axborot berildi.

Xususan, umumiyl maydoni 31 gettardan ortiq "Chirchiq" kimyo industrial texnoparki barpo etilmoqda. 2022 yilda texnopark hududida jami 16,5 million dollarlik loyihalarni amalga oshirish, jumladan, polimer termoelastoplast komponentlari, ko'piktirilgan polipropilen, mikrobiologik preparatlar, qog'oz, kosmetika mahsulotlari ishlab chiqarishni yo'liga qo'yish mo'ljallangan.

Toshkent viloyatida fosforli va murakkab turdag'i mineral o'g'itlar, "Navoiyazot" negizida esa kaliy nitrat va sulfat, metanoldan propilen va boshqa kimyoviy mahsulotlar ishlab chiqarishni tashkil etish, sohaga raqamli texnologiyalarni joriy qilish, Kimyoviy ilmiy-ishlab chiqarish va ta'lim klasterini tashkil etish loyihalari ko'rib chiqildi.

Mutasaddilarga taqdimot qilingan loyihalarni o'z vaqtida va samarali amalga oshirish yuzasidan ko'rsatmalar berildi.



*Manba*